HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

UDK: 636.22/28

SIGIRLARDAN YUQORI SUT SOG‘IB OLISH ULARNING OZIQLANTIRISH OMILLARIGA BOG‘LIQLIGI

B. Sh. Boybulov
q.x.f.n., katta ilmiy xodim,
B.O‘rinov, M.Buxarova
laborantlar,Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti
,Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23763941

Annotatsiya: Xalqimiz ehtiyojini arzon va sifatli chorva mahsulotlari bilan ta’minlashida, sut va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda xo‘jalik asosiy seleksiya belgilarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunga erishishda mollarni to‘la qiymatli oziqlantirish bilan birgalikda seleksiya-naslchilik ishlarini olib borish hal qiluvchi ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: Sermahsul, sigir, hayvon, laktatsiya, yog‘, mahsuldor, oziqlantirish, fizologik.

Аннотация: Для обеспечения потребностей населения в дешёвой и качественной животноводческой продукции и увеличения объёмов производства молока и мяса важное значение имеет совершенствование основных селекционных признаков в хозяйствах. Для достижения этого наряду с полноценным кормлением скота решающее значение имеет проведение селекционно-племенной работы.
Ключевые слова: Высокопродуктивный, корова, животное, лактация, жир, продуктивный, кормление, физиологический.

Annotation: Improving the main breeding traits of farm animals is of great importance for supplying the population with inexpensive, high-quality livestock products and for increasing the volume of milk and meat production. To achieve this, along with providing animals with a nutritionally complete diet, carrying out selection and breeding work is of decisive importance.
Keywords: High-yielding, cow, animal, lactation, fat, productive, feeding, physiological.

Qishloq xo‘jalik hayvonlaridan ko‘proq mahsulot olishning boshidayoq asosiy manbai oziqlantirishning fizologik omillariga e’tibor berishdir. Sut ishlab chiqarish asosan oziqlantirishga bog‘liq bo‘lib, mahsulot tannarxida uning ulushi 50 dan 70 foizgacha ko‘tariladi.
Sifatsiz ozuqalar, noto‘g‘ri oziqlantirish hayvonning modda almashinuviga salbiy ta’sir etib, turli kasalliklarning kelib chiqishi va mahsuldorligini kamayib ketishiga olib keladi.
Sermahsul sigirlarni laktatsiya boshidayoq energiyaga bo‘lgan talabi to‘lig‘igacha qondirilsa, ular o‘z imkoni sut mahsuldorligini ro‘yobga chiqaradi. Yangi tuqqan sigirlarda laktatsiyaning boshida modda almashinuvi buzulmaydi, tananing yog‘ zahiralarini sarflashda, ketoz kabi kasalliklar uchramaydi, Energiya bilan to‘liq ta’minlanmagan sigirlar laktatsiyaning eng yuqori cho‘qqisida 10-40% imkoni darajasidan past miqdorda sut berishi mumkin. Shu davrda energiya yetishmasligida tuxumdonga tuxum hujayrasi yetilishi va bachadon tiklanishi kechikadi, servis davri cho‘zilib sigirning jinsiy faoliyati buziladi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Qoramollar energiya almashinuvi asosini uchuvchi yog‘ kislotalari (60-70%) tashkil etadi. Ular katta qorinda faoliyat ko‘rsatuvchi makro organizmlar tomonidan sintezlanadi.
Sigirning katta qornida uchuvchi yog‘ kislotalarini hosil bo‘lishiga qator omillar ta’sir etadi. Bular ichida eng muhimi yemlar, hajmli ozuqalar quruq moddalarining nisbati hisoblanadi. Bu borada ratsion quruq moddasida yem 50% dan oshmasligi kerak. Agar ratsionda yem nisbati meyordan ortib ketsa, uning tarkibidagi yengil hazm bo‘luvchi uglevodlar hisobiga atsetat miqdori va katta qorin pasayib ketadi.
Ozuqalar tarkibida yetarli miqdorda, sifat va tuzilishdagi klechatka bo‘lishi katta qorin mikroflorasi faoliyatiga ijobiy ta’sir etadi. Dag‘al ozuqalar tarkibida klechatka uchun tolali (pichan) bo‘lishi katta qorin harakati va mikroorganizimlar faoliyatini ta’minlaydi.

Katta qorinda uchuvchi yog‘ kislotalarining hosil bo‘lishi sigirning energiyaga bo‘lgan talabini qondirishi, ma’qul nisbatda va miqdorda bo‘lishi lozim.

Sigirlar ratsionini mo‘tadil saqlab turish maqbul. Aks holda ratsionlarni vaqti-vaqti bilan almashtirilib turilishi mikroorganizmlarning ko‘payishi va modda almashinuviga salbiy ta’sir etadi. natijada katta qorinda uchuvchi yog‘ kislotalarining hosil bo‘lishi kamayib, sut yog‘ining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bir ratsiondan ikkinchi ratsionga borsqichma-bosqich o‘tish talab etiladi.

Sigir uchun hajmli ozuqalari va ular sifati muhim ahamiyatga ega. Pichan silos va senaj katta qorin faoliyatiga ijobiy ta’sir etib, bemalol 15-20 kg sut sog‘ib olish imkonini beradi.

Sigir tanasi energiya nisbatini ushlab turishda, uning semizligi muhim omil hisoblanadi, u doimo zavod semizligida bo‘lishi shart. Oziqlantirish sut miqdori va semizlikni ko‘zlab amalga oshiriladi. Shu boisdan bir xil oziqlantirish guruhdagi sigirlarning sut mahsuldorligidagi farq 5 kg dan oshmasligi darkor.

Bo‘g‘oz sigirlarga ko‘p miqdorda yem berish tavsiya etilmaydi. Sigirlar tuqqandan keyin yem miqdorini sekinlik bilan bosqichma-bosqich oshirib borish tavsiya etiladi.

Sigirlar laktatsiya oxiri yoki tug‘ishdan oldindam olish davrida semirib ketishi energiya muvozanati buzadi.

Tana yog‘i parchalanganda erkin yog‘ kislotalari va glitserin hosil bo‘ladi.natijada qonda erkin yog‘ kislotalari miqdori ko‘payadi va jigarga borib energiya hosil bo‘lish jarayoniga kirishib, tanaga energiya beradi. Qolgan qismi neytral yog‘lar va triglitserid hosil bo‘lishiga sarflanadi. Sigir tanasida yog‘ zahiralari tugab, energiya yetishmaganida jigardagi glikogen sarflanib (glyukoneogenez susayib) tanada yog‘ to‘qimalari hosil bo‘lishiga olib keladi.

Erkin yog‘ kislotalari keton tanachalari uchun qurilish xomashyosi hisoblanadi. Agar sigir ratsionida oson hazm bo‘duvchi uglevodlar yetishmasa, propionat yetarli hosil bo‘lmasligi natijasida, oksalatsetat va bir qism erkin yog‘ kislotalariketon tanachalariga aylanadi. Shuning uchun ko‘pincha sersut sigirlardan tana yog‘larini sarflash va ketoz birga uchraydi.

Katta qorinda mikroorganizmlar tomonidan sintez qilingan atsetat glyukogen va ketogen, propiogen va butirit ketogen xususiyatiga ega. Shuning uchun ratsionda uglevodlar yetishmasligi natijsida ko‘proq butiritlar qismi bo‘lishi mumkin.Sigir tanachalarni energiya bilan ta’minlashda katta qorinda uchuvchi yog‘ kislotalarining jadalligi muhim ahamiyatga ega. Katta qorin dastlab butirit, propionat va oxirida atsetat so‘riladi. Agar ozuqalar tarkibida konservatsiyalangan ozuqalar o‘z tarkibida ko‘p butirit saqlasa, katta qorinda kislotali muhit paylo bo‘lib, mikroorganizmlar faoliyatiga salbiy ta’sir etadi va asosan qonga butiritlar so‘rilishiga sabab bo‘ladi. Bu holat birinchidan sigir

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

tanasini energiyaga bo‘lgan talabini qondirish imkoniyatini pasaytirsa, ikkinchidan giperketonemiya yoki ketozga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, chorva mollaridan yuqori mahsulot va sog‘lom avlod olish uchun chorva mollarini to‘yimli ozuqalar bilan oziqlantirish, seleksiya-naslchilik ishlarini olib borish, ularni tug‘ilgandan yaxshi parvarishlash hamda zooveterinariya tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirov.M.I., Karibayev.Q.Q., Karibayeva.D.Q. O‘zbekistondagi asosiy ozuqalarning to‘yimlilik qiymati. 2000 yil, 8-15 betlar.
2. Akmalxonov Sh.A., Buglanov. A.A. Kak soxranit produktivniye kachestva zavoznogo krupnogo rogatoga skota. Zooveterinariya jurnali, 2015-yil, 8-son, 31-32-betlar.
3. Ashirov M.E. Sutdor qoramollar seleksiyasi. Toshkent–2017, “Navro‘z” nashriyoti, 5-371-betlar.
4. Boybulov B.SH., Abdurasulov Sh., Pardayev R. “Qoramolchilikda sog‘in sigirlarni parvarishlash va sutni qayta ishlash texnologiyalari”, Qarshi-2022 yil. Qo‘llanma. 9-17-betlar.
5. Dunin N., Pereverzev D. Napravleniye seleksionno-plemennoy raboti v molochnom skotovodstve Rossii. J. “Molochnoye i myasnoye skotovodstvo”, 1996, № 6-7, str 2-5.
6. Nosirov U.N., Maqsudov I., Do‘stmuhammedova M.X. O‘zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari. Toshkent SML-ASIA-2011 y, 48-74, 98-127-betlar.